

## O'zbek va yapon tillaridagi qo'shimchalarning o'ziga xos jihatlari

Sharapova Xurshida

TDSHU Yapon-ingliz guruhi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola orqali oltoy tillari oilasiga mansub bo'lgan o'zbek va yapon tillaridagi qo'shimchalarning o'xshash va farqli jihatlari morfologik, semantik hamda sintaktik jihatdan turli misollar orqali ko'rsatib berishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Kanou kei, sonkeigo, sinonimlik, kenjougo, yuklamalar, teineigo, hierogliflar.

### Annotation

This article tries to show the similarities and differences of Uzbek and Japanese suffixes belonging to the Altaic language family through various morphological, semantical and syntactic examples.

**Key words:** Kanou kei, sonkeigo, synonym, kenjougo, downloads, teineigo, hieroglyphs.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ilm-fan va xalqaro munosabatlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning uchun uzoq va yaqin sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va o'rgatishga, millatlararo do'stlik va hamjihatlik aloqalarini mustahkamlashga doir sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlari ham ta'lim-tarbiyaning nafaqat dunyoviy, balki milliy-mafkuraviy jihatdan ham biz yoshlar uchun nechog'liq muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol dalili sifatida ko'riladi. "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman. [1] Yurtboshimizning sa'y-harakatlari bilan mazkur sohalariga alohida e'tibor qaratilib, har tomonlama rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek va yapon tillari sintaktik jihatdan o'zaro o'xshash bo'lib, grammatik vositalari ham deyarli farq qilmaydi. Bu o'ziga xoslik mazkur tillarni o'rganuvchilar uchun bir qator qulayliklar yaratadi.

Yaponlar o'ta samimiy va ochiqko'ngil xalq bo'lib, o'zlarining va boshqa millat vakillarining kishilarni qattiq hurmat qilishlarini gap-so'zlari orqali ifodalab

berishadi. Buning uchun ular maxsus shakllar tizimini ishlab chiqishgan. Bunday grammatik qurilish hamma tilda ham uchrayvermaydi. Ular uyda va do'stlar davrasida oddiy so'zlashuv uslubi va tuzilmalaridan foydalansalar, ishda, majlislarda boshqa bir grammatik vositalarni ishlatadilar. Bunday shakl (敬語—keigo)lar yapon tilida hurmat shakllari deb ataladi. Ular o'z o'rnida 3turga ajratiladi:

1. 丁寧語 (Teineigo—neytral hurmat shakl);
2. 尊敬語 (Sonkeigo—sof hurmat shakl);
3. 謙讓語 (Kenjougo—kamtarlik shakli). [2]

Yuqoridagi sanab o'tilganlarning hammasida maqsad bitta—suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalash bo'lsa ham, ularning o'z ishlatilish o'ri, vaziyati bor.

丁寧語 (Teineigo)—hamma uchun mos keladigan hurmat shakl bo'lib, undan foydalanish yoshga va mansabga alohida ahamiyat berishni talab qilmaydi.

Masalan (例—rei): 社長は出張に出発しました。(Shachou wa shuchchou ni shuppatsu shimashita—Boshliq xizmat safariga ketdi). [3]

尊敬語 (Sonkeigo)—mansab, yosh jihatdan so'zlovchiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan shaxs (prezident, boshliq, direktor va hk.)lar uchun ishlatiladigan maxsus shakl. U bir necha usulda yasaladi. Quyida sonkeigoning shakllarini batafsil ko'rib chiqamiz.

1. 田中様 7時に来られます。(Tanaka sama shichi ji ni koraremasu—Janob Tanaka soat 7da keladilar).

2. 田中様 7時に お帰りに なります。(Tanaka sama 7ji ni o kaeri ni narimasu—Janob Tanaka soat 7da qaytadilar). Bu sonkeigoning yuqoridagiga qaraganda kuchliroq shakli hisoblanadi.

3. Maxsus fe'l shakllari orqali ifodalash: 田中様 いらっしゃいますか?

(Tanaka sama irashshaimasuka?—Janob Tanaka keldilarmi?) [4]


Yuqorida keltirilgan shakllardan o'rinli foydalana olish bir tomondan til imkoniyatlarini ochib bersa, boshqa tomondan so'zlovchining shu tilda chuqur bilimga ega ekanligini ham ko'rsatib beradi.

謙讓語 (Kenjougo)—so'zlovchining suhbatdoshiga nisbatan o'zini kamtarroq tutib, uni qay darajada hurmat qilishini ifodalab beruvchi vositalar yig'indisi.

Bu o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, bajargan ishida o'zini ta'kidlamaslik, imkon qadar o'zini past tutish kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi vositalarni o'z ichiga

oladi. Masalan: Kamina aytgan yumushingizni allaqachon bajarib qo'ygan. (Men bajardim, o'rniga kamina bajargan shaklidan foydalanilgan).

Yana Kenjougo ga qaytadigan bo'lsak, quyidagilar bu shaklni yanada to'liqroq anglashimizga xizmat qiladi.



1. 知らないおばちゃんにかばんを えきまで 運んで 行くに **お手伝いしました**。(Shiranai Obachan ni kaban wo ekimade hakonde ikuni o tetsudai shimashita—Notanish xolaga sumkasini bekatgacha ko'tarib borishga **yordam berdim**.)

2. 私は 毎日 6時に **自宅へ 参ります**。(Watashi wa mainichi 6 jini jitaku e mairimasu—Men har kuni soat 6da **uyimga kelaman**).[5]

Mazkur gapda 自宅(jitaku—uyim) so'zi tilimizda azaldan mavjud bo'lib kelgan kulbam, kulbai vayronam kabi ma'nolarni ifodalab keladi va boshqa shaxsning uyiga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu xususiyatla, qaysidir ma'noda, ikki tilning bir-biri semantik jihatdan aloqador ekanligingning yorqin ifodasi sifatida ko'rinadi.



Yapon xalqi xursand yoki xafaligini, sog' yoki betobligini, umuman, deyarli barcha hissiy belgilarini mimikasi, tashqi ko'inishi bilan emas, so'zlar orqali ifodalashni yaxshi ko'rishadi. Darhaqiqat, shuning uchun bo'lsa kerakki, rango-rang grammatik qurilish va vositalarni o'ylab chiqishgan. Qizig'i shundaki, bu vositalarning aksariyati sinonimlik hosil qilsa ham, bir-birining o'rniga qo'llanilishi holatlari juda kam uchraydi. Quyida shunga doir bir qancha 文法(bunpou—grammatika)larni ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida -siz qo'shimchasi bo'lishsizlik ma'nosini yuklab keluvchi vosita sifatida o'rganilishi barchamizga ma'lum. Bu vosita yapon grammatikasida -は 抜きにして(-wa nukini shite) sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan (例—rei), お世辞は抜きに、君の日本語は本当に うまいよ!(O seji wa nukini, kimi no nihongo wa hontouni umaiyo—Itifotlarsiz, rostan ham yapon tiliga mohir ekansiz-a!)[6]

Ushbu gapda よ(yo) yuklamasidan ham foydalanilgan bo'lib, gapga qo'shimcha ma'no yuklash bilan birga, nutqning quruq, jonsiz bo'lib qolishining ham oldi olingan.

Tillarda qo'shimchalarning omonimlik hosil qilishi kam uchraydigan hodisa emasligi barchamizga ma'lum. Ammo eng ko'p shakldoshlik hosil qila oladigan vositalar yapon tilidagichalik hech bir tilda uchramasa kerak. Bu vositalar yapon tilida qo'shimcha vazifasida kelsa ham, tilimizga tarjima qilish jarayonida faqat qo'shimcha bo'libgina qolmay, ba'zan so'z va hattoki, so'z birikmasi tarzida ham namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, -限り(-kagiri) 文法(bunpou)ning turli ma'nolarda ishlatilish holatlarini ko'rib chiqamiz.

1. 悪い生活習慣を改めない限り、健康にはなれない。(Warui seikatsu shuukan wo aratamenai kagiri, kenkou ni wa narenai—Yomon turmush tarzini o'zgartirmas ekansiz, sog'lom bo'lolmaysiz)

2. 私の調べた限りでは、こういう研究は誰もしていない。(Watashi no shirabeta kagiri de wa, kouiu kenkyuu wa daremo shite inai—Mening izlanishlarim bo'yicha, bunday tadqiqotlarni hech kim amalga oshirmaydi).

3. 70歳以上の方に限り、入場無料です。(70sai ijou no kata ni kagiri, nyuujou muryou desu—Faqat 70 yoshdan oshgan odamlar uchun kirish bepul).

4. 最近は、女性に限らず男性も化粧をする。(Saikin,josei ni kagirazu dansei mo keshou wo suru—Shu kunlarda, nafaqat ayollar,balki erkaklar ham pardoq qilishyapti).

5. 雨だ。今日に限って傘を持って来なかった。(Ameda.Kyou ni kagitte kasa wo motte konakatta—Yomg'ir. Aynan bugun soyabon olib kelmagandim).

6. うちの子に限って悪いことをするはずがない。(Uchi no ko ni kagitte warui koto wo suru hazuganai—Bizning farzandimiz yomon ishlarni qulmasligiga kafolat beraman).

Shunday qilib yuqorida sanab o'tganlarimiz birgina-限り(kagiri)grammatikasida uchraydigan shakldoshliklargina edi,xolos.Yapon tilida bunday so'zlar,vositalarning biz qo'llaydigan va yoki umuman qo'llamaydigan yana qanchadan-qancha turi mavjud.Quvonarlisi shundaki,bu kabi vositalarning tilimizga o'girilishi chog'ida muqobil so'zlar,vositalar boshqa tillardagiga nisbatan tezda topiladi.Masalan,ingliz yoki rus tillariga yapon tilini o'girish jarayoni juda katta kuch va bilimni talab qilishi bilan birga,tarjima ko'ngildagidek chiqmasligi ham mumkin.Chunki sanab o'tilgan tillarning grammatik qurilishi,morfologik tuzilishi bir-biridan keskin farq qiladi. Aynan tarjima sohasida ham o'zbek tilining boyligi,keng imkoniyatlarga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda,har bir tilning alohida boshqalaridan ajralib turadigan xususiyatlari bo'lib,ulardan qay darajada foydalana olish,so'zlashuv jarayonida g'aliz so'zlardan,vositalardan foydalanishdan saqlana bilish uchun,avvalo,shu tilning lug'at boyligi,sintaktik,semantik hamda morfologik tuzilishi bilan atroflicha tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi .

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisda so'zlagan nutqidan [1].
2. Sasaki Hitoko, Matsumoto Noriko. 「日本語能力試験」日本語 総まとめ N3 (“Nihongo nouryouki shiken” Nihongo so-matome N3) [2], [3],[4].
3. Sasaki Hitoko, Matsumoto Noriko. 「日本語能力試験」日本語 総まとめ N2 (“Nihongo nouryouki shiken” Nihongo so-matome N2). [5],[6].